

«T A S D I Q L A N G A N»
O'zbekiston Respublikasi QvaSX
Vazirligi Davlat veterinariya
Bosh boshqarmasi tomonidan
3 avgust 2009 yilda.
O'zR QvaSXV DVBB qoshidagi ITK
24.07.2009 yildagi № 31-sonli bayonnoma.

**OKSITETRATSIKLIN 1 % MALHAMINI VETERINARIYA
MAQSADIDA QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA**

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

- 1.1 «Oksitetratsiklin 1%» malhami, veterinariya uchun.
- 1.2 1 g malhamda 10 mg (10000 ME) gidrokslorid shaklidagi oksitetratsiklin mavjud.
- 1.2 Malham och sariq rangdan to'q sarg'ish ranggacha, bir jinsli quyruq massadan iborat.
- 1.3 Preparat polimer idishlarga 100 va 500 g dan qadoqlangan holda ishlab chiqariladi.
- 1.4 Malham quruq, qorong'i salqin joyda, bolalar yeta olmaydigan joyda, +4°C dan +25°C gacha haroratda saqlanadi. Preparatning belgilangan saqlash sharoitlariga rioya qilingan holda yaroqlilik muddati – 1 yil.

2. FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

- 2.1 Malhamning tarkibiga kiruvchi oksitetratsiklin keng ta'sir doirasi bo'lgan antibiotik sifatida gram-musbat va gram-manfiy bakteriyalar, rikketsiyalar, traxoma, ornitoz qo'zg'atuvchilariga nisbatan faol ta'sir etadi.
- 2.2 Preparatning antibakterial ta'sirining mexanizmi asosida mikroob hujayrasining oqsilini sintez qilishni ribosomalar darajasida bartaraf etish yotadi.

3. QO'LLASH TARTIBI

- 3.1 Malham hayvonlarda ko'zlarning yuqumli kasalliklarini davolashda qo'llanadi: kon'yunktivitlar, blefaritlar, traxoma, ko'zning shox pardasi jarohatlari hamda oksitetratsiklinga sezgir qo'zg'atuvchilar keltirib chiqargan boshqa ko'z kasalliklari.
- 3.2 Malham hayvonning pastki ko'z qovog'i ostiga kurakcha bilan surtib qo'yiladi va yengil uqalovchi harakatlar bilan, paxta piligi yordamida, ko'z qovog'ining tashqi tomonidan butun kon'yunktiva qopchasi bo'ylab taqsimlanadi. Malham kasallik tuzalmaguncha, har kuni, sutkasiga 3-5 marta qo'llanadi. Kasallikning og'irligiga qarab, malhamning dozasi bitta hayvonga 0,2 g dan 0,4 g gacha tashkil etadi.
- 3.3 Malham asoratlarini keltirib chiqarmaydi va nojo'ya ta'sir ko'rsatmaydi. Uni qo'llash mumkin bo'lgan holatlar yo'q.
- 3.4 Malham cheklanadigan holati hayvonlarning oksitetratsiklinga individual yuqori sezgirliги hisoblanadi.
- 3.4 Malham qo'llanganda, hayvonlarni go'sht uchun so'yish va sutni oziq-ovqat maqsadlarida ishlatish cheklanishsiz amalga oshiriladi.

4. E'TIROZLARNI BILDIRISH TARTIBI

- 4.1 Preparat mazkur Yo'riqnomaning talablariga mos kelmagan holda, uni qo'llash to'xtatiladi, bu haqda O'zbekiston Davlat veterinariya preparatlarining ilmiy-nazorat laboratoriyasiga quyidagi manzil bo'yicha bildiriladi: 700178, Toshkent shahri, A.Yunusov ko'chasi, 1a-uy. Tel./faks: 228-76-14, 229-30- 47. E-mail: uzgnkl@rambler.ru. Ayni paytda laboratoriya manziliga laboratoriya bilan avvaldan kelishilgan miqdorda preparatning ochilmagan o'ramlari, va preparatning Yo'riqnoma talablariga mos kelmasligi xususiyatlarining batafsil ta'rif yuboriladi.

Ishlab chiqaruvchi:
O'zbekiston-Buyuk Britaniya-Rossiya Qo'shma Korxonasi
«O'ZBIKOMBINAT» MCHJ
140532, O'zbekiston Respublikasi,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani,
«Namuna» QFY, O'rta - Charxin mahallasi,
Tel: +998 (95) 500 8161
Faks: +998 (66) 234 1134
www.biokombinat.uz
info@biokombinat.uz

TS 00483044-36:2013

biveco[®]
biveco.com